

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI INSHO YOZISHGA O'RGATISHNING METODIK ASOSLARI

F.P.Umurova

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti f.f.f.d. dotsent v.b

Eshboyeva Mehriyona Yusuf qizi

Boshlang'ich yo 'nalish talabasi

Annotatsiya. *Boshlang'ich sinf o'quvchilarini insho yozishga o'rgatishning metodik asoslari yoritiladi. Unda o'quvchilarning yozma nutqini shakllantirish, fikrni izchil va mantiqiy bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, insho yozishga o'rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va amaliy mashqlardan foydalanishning ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning yosh xususiyatlari, ularning nutqiy faoliyatini rivojlantirish omillari hamda samarali metod va usullar ko'rib chiqiladi. Natijada boshlang'ich sinflarda insho yozish ko'nikmasini shakllantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, insho yozish, yozma nutq, metodik asoslar, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, nutqni rivojlantirish, o'quvchi faoliyati, ta'lim samaradorligi, didaktik usullar.*

Insho – o'quvchining muayyan bir mavzuni mustaqil ravishda yoritib bera olish qobiliyatini hamda o'z fikrlarini yozma tarzda aniq, ravon va savodli ifodalash mahoratini ko'rsatadigan ijodiy yozma ish hisoblanadi. Uni kichik hajmdagi badiiy yoki ilmiy matn sifatida ham baholash mumkin. “Insho” so‘zi arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, u “yaratish”, “bunyod etish”, “qurish” kabi ma’nolarni anglatadi. Hozirgi zamon tilimizda esa ushbu so‘z ko‘proq o‘quvchilar va talabalar tomonidan yoziladigan ijodiy yozma ish ma’nosida qo‘llanadi.

Ma'lumki, inshoning barcha turlari ma'lum darajada ijodkorlikni talab qiladi. Ayniqsa ijodiy xarakterdagi insholarda hayotiy voqealar, shaxsiy kuzatuvlar va muallifning o'z fikr-mulohazalari ifodalanadi. Bunday ishlar o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi hamda ularni o'ziga xos, original matn yaratishga undaydi. Shu sababli bu turdagi yozma ishlarga “ijodiy insho” deb nom berilishi bejiz emas.

Insho — muallifning ma'lum bir mavzu asosida o'z qarashlari va fikrlarini yozma shaklda bayon qiladigan kichik hajmdagi asardir. Insho orqali muallifning so'z boyligi, fikrlash qobiliyati, savodxonligi, bilim darajasi va dunyoqarashi namoyon bo'ladi.

Mazmuniga ko'ra insholar uch turga bo'linadi:

1. Adabiy mavzudagi insholar
2. Adabiy-ijodiy mavzudagi insholar
3. Erkin mavzudagi insholar

Adabiy mavzudagi insholar adabiyot darsliklarida berilgan yoki o'qituvchi tomonidan tushuntirilgan mavzular asosida yoziladi. Masalan, ma'lum bir badiiy asar yoki undagi qahramonlar haqida yozilgan insho shu turga kiradi. Adabiy-ijodiy mavzudagi insholar esa dars jarayonida o'rganilgan adabiy materiallarga o'quvchining shaxsiy fikri va ijodiy yondashuvi qo'shilib ifodalangan yozma ishlardir. Erkin mavzudagi insholar esa adabiyot fanining dasturida ko'rsatilmagan mavzularda yoziladi. Bunday insholarda o'quvchi o'z bilimlari, hayotiy qarashlari, axloqiy tarbiyasi hamda ijtimoiy-siyosiy fikrlarini mustaqil ravishda bayon qiladi.

Metoddan foydalanish ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda insho va bayon yozish metodini klasterlash asosida tadqiq etish, uning nazariy va metodik jihatlarini chuqur o'rganish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi pedagogika fani oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.⁴ XXI asrga kelib dunyo miqyosida ilm-fan va bilim olishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, maktab ta'limining ahamiyati kundan-kunga oshib borayotgani kuzatilmoqda. Buning asosiy sababi shundaki, fan va texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish muhim va mas'uliyatli vazifa hisoblanadi. Shu maqsadda amalga oshirilayotgan islohotlar o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning savodxonligi hamda kitobga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda dars jarayonlarini samarali tashkil etish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishini susaytirmaslik, ularni faol ishtirok etishga undash uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlardan foydalanish zarur bo'lib qolmoqda. Shu bois ta'lim jarayonida ilg'or xorijiy pedagogik texnologiyalarni qo'llash ham keng yo'lga qo'yilmoqda. Bu esa zamonaviy ta'lim tizimining muhim talablaridan biri sifatida qaralmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini insho va bayon yozishga tayyorlash jarayonida o'qituvchining metodik bilim darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi metodik jihatdan puxta tayyorgarlikka ega bo'lsa, o'quvchilarda yozma nutq ko'nikmalari tezroq va samaraliroq shakllanadi. Chunki insho va bayon yozish jarayoni nafaqat savodxonlikni, balki o'quvchining fikrini aniq va tartibli ifodalash qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Yozma nutq og'zaki nutqdan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Unda so'zlar puxta tanlanadi, fikrlar grammatik jihatdan aniq ifodalangani hamda gap tuzilishi nisbatan murakkabroq bo'ladi. Bundan tashqari, yozma nutqda og'zaki nutqqa xos bo'lgan ohang, imo-ishora yoki mimika kabi vositalar ishtirok etmaydi. Shu sababli ham yozma

⁴ Mardonov SH. Q. Pedagogika fanidan o'qitishning elektron modulli didaktik ta'minotini ishlab chiqish texnologiyasi. – Toshkent, 2021

nutqni shakllantirish murakkab jarayon bo'lib, u ma'lum vaqt va muntazam mashqni talab etadi. Yozish jarayonida inson o'z fikrlarini tahlil qilish, tuzatish va qayta ko'rib chiqish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bois yozma nutqda mazmunning boyligi va savodxonlik darajasi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

Yozma nutqni rivojlantirish tilning grammatik tuzilishini hamda lug'at boyligini chuqur o'zlashtirish bilan chambarchas bog'liqdir. O'quvchilar yozma ishlarni bajarish jarayonida so'z boyligini kengaytiradi, gaplarni to'g'ri tuzishni o'rganadi va fikrini aniq bayon etishga odatlanadi. Yozma nutqni shakllantirishda quyidagi asosiy talablarga amal qilish muhim hisoblanadi:

Har bir so'z va gap matnning asosiy mazmunini ochishga xizmat qilishi, fikrlar mantiqan bog'langan va izchil bayon etilishi lozim;

Matndagi fikrlar ifodali, qiziqarli, uslubiy jihatdan sodda hamda tushunarli tarzda bayon qilinishi kerak;

Yozma nutqda adabiy til me'yorlariga amal qilish, til boyligidan o'rinli va ijodiy foydalanish muhimdir.

Yozma nutqni rivojlantirish orqali og'zaki nutqni ham takomillashtirish mumkin. Sababi matn tuzish, fikrlarni tartibga solish va ularni aniq shaklda ifodalash inson muloqotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish ularning fikrlash qobiliyatini ham faollashtiradi. Bu jarayon o'quvchilarning tafakkurini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish hamda nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuning uchun ham o'qituvchi har bir mavzuni o'tish jarayonida o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

III–IV sinflarda o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish maqsadida turli xil mashg'ulot va topshiriqlardan foydalanish mumkin. Masalan, o'tilgan grammatik qoidalar asosida matn mazmunini qayta hikoya qilish, berilgan rasmlar asosida hikoya yoki insho tuzish, ko'rilgan film yoki eshitilgan voqealar haqida fikr bayon qilish shular jumlasidandir. Shuningdek, o'qilgan badiiy asarlar, tomosha qilingan kinofilm yoki spektakllar yuzasidan taqriz yozish ham o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda samarali usullardan biri hisoblanadi.

Yozma nutq madaniyati shakllanib borgan sari o'quvchilarning og'zaki nutqi ham asta-sekin takomillashib boradi. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchisi o'qigan badiiy asari yoki tomosha qilgan filmi haqida o'z fikrini mustaqil va aniq bayon qila oladigan darajaga yetadi. Bu esa ularning mustaqil fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli o'quvchilarda yozma nutqni shakllantirish va rivojlantirish uchun ularni muntazam ravishda insho va bayon yozishga o'rgatish muhim hisoblanadi. Insho yozish jarayonida o'quvchi avvalo tanlangan mavzu bo'yicha ma'lum bilim va tasavvurlarga ega bo'lishi lozim. Albatta, dastlabki urinishlarda o'quvchilar mukammal natijaga erisha olmasligi mumkin. Biroq muntazam mashq qilish, qayta-qayta yozish

orqali ularning insho yozish ko'nikmalari asta-sekin mustahkamlanib boradi. Natijada bu ko'nikma barqaror malakaga aylanadi. Bunday malakaning shakllanishi esa chuqur bilim, izlanish va mehnat talab etadi.

O'quvchilarni insho yozishga o'rgatish jarayonida ularning ijodiy fikrlashi va kreativ yondashuvlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun dars jarayonida turli innovatsion metod va usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ana shunday usullardan biri — «Spektakl» metodidir. Ushbu metoddan boshlang'ich sinf o'quvchilarini insho yozishga tayyorlash jarayonida samarali foydalanish mumkin.

Mazkur metod asosida insho yozish uchun tanlangan ertak yoki mavzu bo'yicha o'quvchilar ishtirokida kichik sahna ko'rinishi tashkil etiladi. Sahnalashtirish jarayonida o'quvchilar voqealarni bevosita ko'rib, ularning mazmunini chuqurroq anglaydi. Ma'lumki, ko'plab o'quvchilar uchun voqeani ko'rish orqali tushunish o'qib tushunishga nisbatan osonroq va ta'sirchanroq bo'ladi. Shuning uchun ham sahna ko'rinishlari o'quvchilarning mavzuni yaxshiroq anglashiga yordam beradi.

Sahna ko'rinishi yakunlangandan so'ng o'quvchilar o'z taassurotlari, fikr va mulohazalarini insho shaklida bayon etadilar. Bu jarayon o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi, ularni erkin fikr yuritishga va o'z qarashlarini mustaqil ifodalashga undaydi. Shuningdek, bunday metod o'quvchilarni an'anaviy bir xildagi topshiriqlardan charchab qolishining oldini olib, ularning insho yozishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini zamon talablariga mos ravishda shakllantirish bugungi kun pedagoglari zimmasidagi muhim vazifalardan biridir. Bu vazifani samarali amalga oshirish uchun o'qituvchilar dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, ta'limga ijodiy va yangicha yondashuv asosida ishlashlari zarur.

Boshlang'ich sinflarda insho yozishga o'rgatish bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Avvalo o'quvchilarda matn tuzish, gaplarni o'zaro mantiqan bog'lash, mavzuga mos fikr bildirish kabi dastlabki ko'nikmalar shakllantiriladi. O'qituvchi o'quvchilarga kichik hajmdagi matnlarni tuzish, rasm asosida hikoya yaratish, savollarga javob berish orqali fikrlarni izchil ifodalashni o'rgatadi. Keyingi bosqichlarda esa o'quvchilar reja asosida mustaqil ravishda insho yozishga o'rganadilar. Bu jarayonda o'qituvchining yo'naltiruvchi savollari, metodik ko'rsatmalari va turli mashqlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, ta'lim jarayonida sinov insholari ham alohida o'rin egallaydi. Sinov insholari o'quvchilarning ma'lum mavzular bo'yicha egallagan bilimlarini hamda insho yozish bo'yicha hosil qilgan ko'nikma va malakalarini tekshirish maqsadida o'tkaziladi. Odatda bunday insholar yirik mavzular yakunlangandan so'ng, chorak oxirida yoki o'quv yilining yakunida tashkil etiladi. Bundan tashqari, turli fan olimpiadalari, ijodiy tanlovlar va nazorat ishlari jarayonida ham o'quvchilardan insho yozish talab etiladi.

Bu esa o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajasini aniqlash hamda ularning yozma nutq madaniyatini baholash imkonini beradi.

Darsliklar va metodik qo'llanmalarda insho yozish jarayonining muhim elementlaridan biri sifatida epigraf tanlash masalasi ham yoritib berilgan. Epigraf — bu inshoning mazmuniga mos keluvchi mashhur hikmatli so'z, maqol, ibora yoki badiiy asardan olingan qisqa parcha bo'lib, u inshoning umumiy g'oyasini ifodalashga xizmat qiladi. To'g'ri tanlangan epigraf insho mazmunini boyitadi, uning badiiy ta'sirchanligini oshiradi hamda muallifning mavzuni chuqur anglaganini ko'rsatadi. Epigraf o'quvchining adabiy bilimlari va badiiy tafakkuri kengligini ham namoyon etadi. Odatda epigraf insho rejasidan keyin, asosiy matndan oldin sahifaning o'ng tomoniga yoziladi. Epigraf matni tugagach, agar u so'roq yoki undov gap bo'lmasa, nuqta qo'yiladi. Shundan so'ng epigraf muallifining ismi qavs ichida ko'rsatiladi. Bu esa epigrafning qayerdan olinganini ko'rsatish va matn muallifiga hurmat bildirish maqsadida amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, inshoda epigrafdan foydalanish qat'iy majburiy talab hisoblanmaydi. Bu o'quvchining ixtiyoriga bog'liq bo'lib, agar epigraf mavzuning mazmuni bilan uyg'unlashsa, inshoning badiiyligi va ta'sirchanligi yanada ortadi. Mavzuga mos epigraf tanlash o'quvchining ijodiy yondashuvi, tafakkur doirasi va nutq madaniyatining shakllanganligini ko'rsatadi. Boshlang'ich sinflarda insho yozishga o'rgatish o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, yozma nutqini boyitish hamda ularni mustaqil fikr bildirishga o'rgatishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan insho mashg'ulotlari, sinov ishlari hamda epigraf kabi badiiy vositalardan foydalanish o'quvchilarning savodxonligini oshirishga va ularning adabiy tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. To'xliyev B va boshqalar. O'zbek tili o'qitish metodikasi. T. O'zbekiston respublikasi yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armsi nashriyoti. 2006 y.

2. Fuzailov S va boshqalar. Ona tili 3- sinf. T. O'qituvchi. 2007 y.

3. Zunnunov A. Xotamov N. Esonov J, Ibrohimov A. Adabiyot o'qitish metodikasi. T. O'qituvchi. 1992 y. 334 b.

4. G'afforova G. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar. Qarshi Nasaf. 2009 y. 164 b.

5 Shodmonov E va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda DTS talqini va o'zbek ilologiyasi ta'limi parametrlari. Qarshi "Nasaf" 2000 y.

6 M.Hamroyev, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva Ona tili (darslik). Toshkent: TDPU. 2008.

7. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev Ona tilidan mashqlar to'plami. Toshkent: TDPU. 2009.